

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

QUDRATOVA MUBORAK SHUHRATOVNA

ASQAR MAHKAM SHE'RIYATI POETIKASI

10.00.02 – O'zbek adabiyoti

FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological
sciences**

Qudratova Muborak Shuhratovna

Asqar Mahkam she'riyati poetikasi5

Kudratova Muborak Shuxratovna

Поэтика поэзии Аскара Махкама23

Qudratova Muborak Shuxratovna

Poetics of Askar Mahkam's poetry43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works47

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

QUDRATOVA MUBORAK SHUHRATOVNA

ASQAR MAHKAM SHE'RIYATI POETIKASI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3340 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rajabova Ma'rifat Baqoyevna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Sharipova Laylo Frunzeyevna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Axmedova Shoira Nematovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 6 may soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0365) 221-29-14; faks: (0365) 221-29-14. Email: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (863-raqami bilan ro'yxatga olingan).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "20"aprelda tarqatildi.

(2026-yil "15" apreldagi 10-raqamli reyestr bayonnomasi).



B.E.Kilichev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.G'.Davronova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc),
professor

Z.Q.Amonova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotida o‘z munosib o‘rni va mehvariga ega bo‘lgan Sharq, jumladan, uning ajralmas bir qismi bo‘lgan o‘zbek adabiyoti o‘z tarixi mobaynida ulkan so‘z san‘ati darg‘alarini yetishtirib bergan. Shu ma’noda, milliy adabiyotning jahon so‘z san‘ati tarixi sahifalaridan o‘rin olishga arzigulik asarlar yaratgan har bir shoir-yozuvchisi ijodini fundamental tadqiq etish nafaqat milliy adabiyotshunoslik, balki, umuman, jahon adabiyotshunosligi taraqqiyoti uchun muhim xulosalar berishi mumkin.

Dunyo adabiyotshunosligida ijodkor mahorati, mavzu va poetik g‘oyaning uzviy bog‘liqligi, uslub masalalari hamda tasvir rang-barangligi tadqiqiga doir ko‘lamdor izlanishlar olib borilmoqda. Boisi, adabiyotshunoslik fanidagi umumnazariy xulosalar har bir individual ijodkor asarlarini fundamental tadqiq etish orqali yuzaga keladi.

Ta’kidlash kerakki, keyingi yillarda qalam ahllarining ijodini istiqloq mafkurasi asosida o‘rganish, mahoratiga xolisona baho berishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, o‘zbek she’riyatiga o‘z ovozi va o‘z sozi bilan kirib kelgan Asqar Mahkam ijodini monografik tarzda o‘rganish, badiiy mahorat, shakl va mazmun uyg‘unligi, obrazlar va mavzular rang-barangligi kabi masalalarni tadqiq qilish adabiyotshunosligimiz oldida turgan muhim muammolardan biridir. Zero, “...adabiyot va san‘atga, madaniyatga e’tibor – bu, avvalo, xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho‘lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo‘q”.¹ Bu esa har bir ijodkor asarlaridagi milliy va umuminsoniy g‘oyalar targ‘ibining o‘ziga xosligiga alohida e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbek adabiyotida Asqar Mahkam ijodi noyob hodisalardan biri bo‘lib, shoirning turli yillarda yaratilgan asarlarida xalqning mustabid sho‘ro zamonidagi hayoti, erksizlik, huquqsizilikdan aziyat chekkani, tili, tarixi va dinidan ajratilgan millatning nochor turmush tarzi, orzu-armonlari va irodasi ifoda etilgan. U o‘z asarlarida o‘zbek xalqining sho‘ro davrida kechgan zulm iskanjasidagi hayotini yaxlit badiiy tarixini yarata oldi va bu bilan o‘zining tarix va adabiyot oldidagi vazifasini sharaf bilan uddaladi.

Asqar Mahkam ijodini milliy istiqloq mafkurasi ruhida tadqiq etish, unga xolis va munosib baho berish mazkur ilmiy tadqiqotning zaruriy ehtiyoj mahsuli ekanligini tasdiqlaydi. Asqar Mahkam hurfikrli, ma’rifatparvar, e’tiqodiga sobit shaxs. Haq, haqiqat, olam va odam to‘g‘risidagi axloqiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini yaxlit holda tadqiq etish adabiyotshunosligimiz oldidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

¹Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir / Xalq so‘zi. 2017. 4 avg.

2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida” Farmoyishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi 5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeiini tubdan oshirish to‘g‘risida”, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Asqar Mahkam ijodini mumtoz va zamonaviy adabiyot kontekstida fundamental tadqiq etishga qaratilgan mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajariladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida badiiy tafakkurning yetakchi tamoyillari, she‘riyatining g‘oyaviy-badiiy sathlari, poetik obraz va badiiy matn serqatlamligi doimo adabiyotshunoslar diqqat markazida bo‘lgan. Bu borada Aristotel, A.A.Potebnya, M.M.Baxtin, A.N.Veselovskiy, B.V.Tomashevskiy, L.I.Timofeyev, V.M.Jirmunskiy kabi olimlarning poetika masalalariga doir fikrlari e‘tiborli.²

Yangi asrda milliy she‘riyat shakl va mazmun jihatdan yangilandi, milliy adabiyotimizga jahon adabiyotining har tomonlama ta‘siri kuchaydi. Tabiiyki, yaratilgan lirik asarlarni yangicha nazariy tamoyillar asosida qayta ko‘rib chiqish va baholash zamonaviy adabiyotshunoslikning dolzarb muammolari sifatida qatordan tadqiqotlarda tadqiq qilinmoqda.

O‘zbek adabiyotshunosligida ham poetika masalalari hamda ma‘lum bir ijodkorning badiiy mahorati tadqiqiga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar yaratilgan.³

² Аристотель. Поэтика. – Т.: “Адабиёт ва санъат” нашриёти, 1980. – 152 б.; Потебня А.А. Теоретическая поэтика. – М.: Высшая школа, 1990. – 299 с.; Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – М.: “Искусство”, 1976. – 614 с.; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: 1979. – 222 с.; Веселовский А. Н. Историческая поэтика. – М.: “Высшая школа”, 1989. – 224 с.; Томашевский Н. Традиция и новизна. – М.: “Художественная литература”, 1981; Тимофеев Л. Слово в стихе. – М.: 1982.; Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л.: 1977. – 408 с.

³ Кўшжонов М. Ойбек маҳорати. – Т.: “Бадий адабиёт” нашриёти, 1965. – 329 б.; Норбоев Б. Ҳаётни поэтик талқин этиш тамойиллари ва маҳорат муаммолари. Филол.фан.докт.дисс... автореф. – Т.: 1996. – 54 б.; Ҳасанов Ш. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек дostonлари поэтикаси. Филол.фан.докт.дисс... – Самарқанд, 2004. – 258 б.; Сабирдинов А. Ойбекнинг поэтик маҳорати. Филол.фан.номз.дисс... автореф. – Т.: 2004. – 46 б.; Сувонова Ж. Усмон Азим шеърлятида бадий тафаккур. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2012. – 96 б.; Қосимов Я. Ўзбек шеърлятида поэтик фикрнинг янгилашиш жараёни. Филол.фан.номз.дисс... –Т.: 1993.; Афоқова Н. Абдулла Орипов лирикасида бадий санъатлар. Филол.фан.номз.дисс... автореф. – Т.: 1997.; Раҳимжонов Н. Асқад Мухтор поэтикаси. Рисола. – Т.: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2003. – 72 б.; Ашурова Г.Н. Абдулла Орипов шеърлятида анъана ва бадий маҳорат: Филол.фан.номз.дисс... – Т.: 2008.; Акрамов Б. Оламнинг бутунлиги. Лирикада Образ муаммоси. – Т.: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1988. – 201 б.; Ҳамдамов А. Абдулла Орипов шеърлятида халқона поэтик тафаккур муаммоси. Филол.фан.номз.дисс... автореф. – Т.:

Ijodi tadqiqot obykti sifatida tanlangan Asqar Mahkam mahoratining ayrim qirralariga doir mulohazalarni Xurshid Davron, Nabijon Boqiy, Ne'matullo Ibrohim, Odil Ikrom, Abdullo Zuhur, Yusufali Shonazarov, O.Toshboyev, O.Norov, X.Bozorova, N.Djumanioyova, T.Quljonovalarning maqolalarida ko'rishimiz mumkin.⁴ Bundan tashqari, G. Ernazarovning "Hozirgi o'zbek she'riyatida tasavvuf an'analari" mavzusidagi tadqiqotida Asqar Mahkam she'riyatidagi so'fiyona ohanglarning badiiy ifodasiga doir mulohazalar keltirilgan.⁵

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek adabiyotining dolzarb muammolari" (2020-2024-yy.) yo'nalishida olib borilayotgan tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Asqar Mahkam poetik olamini yaxlit butunlik sifatida tadqiq etish va shoirning ijtimoiy-siyosiy voqelikni badiiy gavalantirishdagi mahoratiga baho berishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

hozirgi o'zbek she'riyatida an'ana va zamonaviylikning uyg'unlashuvini kuzatish va shu asnoda zamonaviy o'zbek she'riyatida poetik tafakkurning yetakchi tamoyillarini tayin etish;

Asqar Mahkam she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini tarixiy-ijtimoiy muhit va zamonaviy adabiy jarayon kontekstida kuzatish;

Shoir she'riy merosining mavzular olamini tahlil qilish, ijodiy individualligining shakllanish jarayonini, she'rlarining shakl va mazmun uyg'unligi va poetik obrazlar badiiyatini ochib berish

Asqar Mahkam ijodida ilohiy-irfoniy motivlar tadrijini, poetik obraz va badiiy matn serqatlamligini tahlil qilish;

uslub va badiiy tasvir poetikasi aro uyg'unlikni shoir she'riyati leksikasi, badiiy-tasviriy vositalar va poetik sintaksis asosida ilmiy tadqiq qilish;

2011.; Холова М. Ўзбек модерн шеърини поэтикаси. Филол.фан.номз.дисс... автореф. – Самарканд, 2018. – 50 б.; Ражабов Д. Бадий образ ва ритм табиати. – Бухоро, 2002. – 102 б.; Давронова М. Ҳозирги ўзбек шеърини индивидуал услуб поэтикаси (Усмон Азим, Иқбол Мирзо, Фахриёр ва Абдували Қутбиддин шеърини мисолида). Филол.фан. бўйича фалс.докт.дисс... автореф. – Самарканд, 2019. – 66 б.; Назарова Д.Жамол Камол шеърини поэтикаси. Филол.фан. бўйича фалс.докт.дисс... – Бухоро, 2020. 167 б.; Зоирова Г. Самандар Воҳидов шеърини поэтикаси. Филол.фан. бўйича фалс.докт.дисс... – Бухоро, 2022. 166 б.

⁴ Даврон Х. Осмонга талпинган шоир (Китобда: Маҳкам А. Ваҳдат куйи. Тошкент. "Nurafshon business", 2021. 3-11- б.; Боқий Н.Одамнинг изтироблари. (Китобда: Маҳкам А. Ваҳдат куйи. Тошкент. "Nurafshon business", 2021. 362-366- б.; Иброҳим Н. "Ҳақ" китобига сўзбоши // Маҳкам А. Ҳақ. – Душанбе, «Адиб», 1998.–3-10-б.; Икром О. "Қаҳратон кишларга видолар айтдим..." // <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/odil-ikrom-qahraton-qishlarga-vidolar-aytdim.html>; Зухур А. Қаттиқ иймон шоири // "Ватан" газетаси, 1999, № 14.; Тошбоев О. Ҳақ ошиғи Асқар Маҳкам // <https://biblioclub.ru/index.php?page>; Норов О. Asqar Mahkam she'riyatida islomiy g'oyalar pafosi // "Til va adabiyot ta'limi", 2022 йил, 1-сон. – 9-12-б. Bozorova X. Asqar Mahkam – Imon shoiri // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Jan., 2024 www.oriens.uz; Djumanioyova N. Asqar Mahkam she'riyatida insoniylik tarannumi // Innovation in the modern education system; T.Quljanova. Asqar Mahkam ijodida darvesh obrazining badiiy talqini. https://uza.uz/uz/posts/asqar-mahkam-izhodida-darvesh-obrazining-badiiy-talqini_630315.

⁵ Г. Эрнazarova. Ҳозирги ўзбек шеърини тасаввуф анъаналари. Филол.фан. бўйича фал.докт.дисс. – Самарканд, 2021. – 136 б.

she'riy ritmning individual uslubdagi tovlanishlarini o'rganish.

Tadqiqotning obektini Asqar Mahkamning “Haq”, “Saylanma”, “Vahdat kuyi”, “Analhaq”, “Tabriz daftari” va matbuotda e'lon qilingan she'rlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmetini Asqar Mahkam ijodining mavzular ko'lami, obrazlar olami va poetik xususiyatlari, badiiy mahorati kabi masalalarni tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Badiiy matn tadqiqini tekshirishda qiyosiy-tarixiy, struktural, biografik, germeneytik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklar:

Asqar Mahkamning poetik mahorati takomiliga ta'sir etgan omillar tahlil etildi va shular asosida ijodiy ta'sir va individual uslub qirralari aniqlangan;

Asqar Mahkam she'riyatida shakl va mazmun uyg'unligi, obrazli fikrlash tadriji hamda falsafiy fikrlash uslubining o'ziga xosligi dalillangan;

she'riy matnda poetik obraz va badiiy matn serqatlamligi ijodkor shaxsi va falsafiy konsepsiyasi bilan uyg'unlikda tekshirilgan;

Asqar Mahkam lirikasida badiiy talqin qilingan mavzu va poetik g'oyalar, an'anaviy motiv va shoir poetik olamining o'ziga xosligi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Asqar Mahkam ijodida ilohiy-irfoniy mavzu tadriji, poetik obraz va badiiy matn serqatlamligi, badiiy uslub va shakliy-ifodaviy vositalarning o'ziga xosligi dalillangan;

Asqar Mahkam zamonaviy adabiy jarayonda o'ziga xos o'ringa egaligi, shoir ijodi xalqning hayoti, qadriyatlar va ijtimoiy muammolariga yangicha qarashlar bilan to'yintirilganligi ochib berilgan;

Asqar Mahkam she'riyatida shakl va mazmun uyg'unligi, obrazli fikrlash uslubi ijodkorning falsafiy konsepsiyasi bilan chambarchas bog'liqligi, uning shaxsiy hayoti, tajribalari va dunyoni qabul qilish tarzi shoir she'rlarining badiiyatini ta'minlagan omil ekanligi muhim xususiyatlar sifatida ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan ilmiy usullari va nazariy ma'lumotlarini berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan materiallarning ilmiy metodlar vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, adabiyotshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida tahlil va talqin qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Asqar Mahkam badiiy olami va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari yaxlit monografik holda tadqiq qilinib, ilmiy-nazariy xulosalarga kelinganligi bilan belgilanadi. Shu bilan birga mavzuga doir ilmiy xulosalar milliy adabiyotshunoslik fanining taraqqiyot tamoyillarini belgilash va uning o'ziga xos nazariy yo'nalishini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati undagi fikr-xulosalardan oliy ta'lim tizimida “Hozirgi adabiy jarayon”, “Adabiyot nazariyasi”, “O'zbek adabiy tanqidi

tarixi” fanlaridan darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda hamda Asqar Mahkam ijodiga oid ilmiy izlanishlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Asqar Mahkam she‘riyati poetikasini tadqiq etish hamda uning ilmiy - nazariy asoslarini ishlab chiqish asosida:

Asqar Mahkamning poetik mahorati takomiliga ta‘sir etgan omillar, shu asosda ijodiy ta‘sir va individual uslub qirralari, shoir she‘riyatida shakl va mazmun uyg‘unligi, obrazli va falsafiy fikrlash tadriji hamda uslubining o‘ziga xosligi, ilohiy-irfoniy mavzu tadriji, poetik obraz va badiiy matn serqatlamligi, badiiy uslub hamda shakliy-ifodaviy vositalarning o‘ziga xosligi dalillangan xulosalardan Davlat ilmiy-texnik dasturi doirasidagi 2024-yilda bajarilgan AL-662204396 “Buxoro adabiy muhiti ijodkorlarining ilmiy-adabiy merosi bo‘yicha elektron platforma yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (2025 - yil, 30 yanvardagi № 01-04/670-son ma‘lumotnoma). Natijada ijodkorlarning ilmiy-adabiy merosi bo‘yicha elektron platforma yaratishda shoirlar she‘riyati poetikasi bo‘yicha ilmiy-nazariy fikrlar muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qilgan;

dissertatsiyadagi zamonaviy o‘zbek she‘riyatida poetik tafakkurning yetakchi tamoyillari Asqar Mahkam she‘riyati poetikasi va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, ilohiy-irfoniy g‘oyalarning ijodkor shaxsiyati bilan bog‘liqligi, shoirning ijtimoiy-siyosiy voqelikni badiiy gavdalantirishdagi mahoratiga doir ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limi huzuridagi “Nilufar” adabiy to‘garagi mashg‘ulotlari jarayonida foydalanilgan (O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo‘limining 2025-yil 16-yanvardagi 1-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada to‘garaklarning ilmiy saviyasini oshirishga, o‘quvchi-yoshlarning ma‘naviy dunyoqarashini takomillashtirishga xizmat qilgan;

tadqiqotdagi ilmiy fikr va qarashlardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining “Assalom, Buxoro”, “Najot bilimda” teleko‘rsatuvlari, “Buxoro” radiosining “Ta‘limdagi muammolar”, “Muloqot va munozara” radioeshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2025-yil 16-yanvardagi 01-09-23-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuvlarning ilmiy-ommabopligini ta‘minlashga, zahirasini yangi manbalar bilan boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi: tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarda aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi: dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, shundan, 4 tasi respublika hamda 5 tasi xorijiy jurnallarda e‘lon qilingan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 140 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy, amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning dastlabki bobi **“Zamonaviy o'zbek she'riyatida poetik tafakkurning yetakchi tamoyillari va Asqar Mahkam ijodi”** deb nomlangan. Bobning ilk fasli *“Hozirgi zamon o'zbek she'riyatining taraqqiyot xususiyatlari”* deb atalgan.

Ma'lumki, har bir davrning faqat o'zigagina xos jihatlari bo'ladi. Shoir davr farzandi sifatida o'zi yashayotgan zamonning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy muammolari bilan yuzlashadi. Inson uchun eng zarur ehtiyojlar qondirilmagan jamiyatda norozilik kuchayadi, to'g'ri, bu qarshilik, faol yoki sust, yashirin yo oshkora bo'lishi mumkin. Sho'ro tuzumiga qarshi ayblovlar, ishoralar, ramzlar – istehzo, o'z-o'ziga ironiya tarzida yuzaga chiqdi. She'riyat o'zining kundalik lug'atini yangilay boshladi. Sobiq mustabid tuzumga moslashtirilgan she'riyatimiz lug'atida badiiy so'z polifonik xarakter kasb etish bilan birga ifoda usullari o'zgarishga uchradi. Rauf Parfi va Abdulla Oripov ijodida o'zining yuqori cho'qqisiga ko'tarilgan sho'ro tuzumidan norozilik hissi, Erkin Vohidov, Omon Matjon, Xurshid Davron, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Halima Hudoyberdiyeva, Qutlibeka Rahimboeva ijodida ochiq isyonkor kayfiyat o'laroq namoyon bo'la boshladi.

Mustaqillikdan so'ng o'zbek she'riyati o'z yo'nalishini o'zgartirdi va albatta, buning o'ziga xos sabablari mavjud. Butun dunyoda kuchaya boshlagan iste'molchilik kayfiyati, moddiyatga kuch berish tamoyili tufayli adabiyotga, ayniqsa, she'riyatga bo'lgan munosabat o'zgardir. Umumumjahon adabiyotida bo'lgani singari bizda ham ma'lum bir toifaga, ma'lum bir tayyorgarlikka ega kitobxonlar qatlamiga xoslangan yo'nalishlar paydo bo'la boshladi. She'riyatda estetik ideal yangilana boshladi. Adabiyotshunoslarning fikricha, xorij adabiyoti bilan yaqindan tanishish, dunyo she'riyatidan qilinayotgan tarjimalar soni va sifatining ortishi, jahon adabiyotiga bo'lgan e'tiborning kuchayishi, “Jahon adabiyoti” jurnalining tashkil qilinishi natijasi o'laroq modern she'riyatiga qiziqish ortdi⁶. Ijtimoiy-siyosiy tuzumning o'zgarishi kishilarning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, diniy-falsafiy qarashlarida muayyan burilishlar yasadi. Natijada hozirgi zamon o'zbek she'riyatida ifoda usuliga ko'ra quyidagi yo'nalishlar namoyon bo'ldi:

1. An'anaviy barmoq
2. Xalqona ohang
3. Aruz

⁶ Bu haqda qarang. Hamdam U. Yangilanish ehtiyoji. – T.: Fan, 2007.

4. Modernistik ohang (yoki ohangsizlik)

5. Sinkretik (qorishiq) ifoda usuli...⁷

Albatta, bu tasnif shartli. Ayrim shoirlar ijodida sanab o‘tilganlarning bir nechtasini yoki barchasini ko‘rish ham mumkin.

Adabiyot har doim o‘zini ich-ichdan yangilab boradi. Bu o‘zgarish davr, ijtimoiy hayot, odamlar ruhiyatidagi evrilishlar bilan bog‘liq. She‘riyat ham ma‘lum bir davrlarda ham shakl, ham mazmun jihatidan o‘zini yangilaydi. XX asrda barmoq, sərbast, erkin she‘r shakllari kirib kelgan bo‘lsa, o‘tgan asr oxirlarida modern she‘riyat yuz ko‘rsata boshladi. Badiiy so‘zga bo‘lgan munosabatning tubdan o‘zgarishi yangicha ifoda, yangicha tasvir, yangicha shakl va ularning shakllanishiga turtki bergan yangicha mazmunning tug‘ilishiga olib keldi.

Xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyot va ilohiy ta‘limotning she‘riyatga ta‘siri kuchayishi natijasida badiiy tafakkur eski qoliplarni sindirib, ifoda va tasvirda shaklini o‘zgartira boshladi. Yangi davr adabiyotida haqqoniylik va ta‘sirchanlik asosiy tamoyil sifatida qabul qilindi, natijada ijodkor yaratgan badiiy olamni tadqiq qilish, lirik “men”ning ijtimoiylashuvi, olam va insoniyat haqidagi fikrlar ko‘lamining kengayishi, ilohiy-irfoniy mavzularning badiiy sintezi kuchaydi.

Mustaqillik davri o‘zbek she‘riyatidagi yangilanishlar quyidagilarda namoyon bo‘ldi:

- **mazmun sathida:** siyosiy-mafkuraviy bosim barham topishi natijasida sof san‘at mezonlari ustuvorlashdi, ilohiy-irfoniy motivlar kuchaydi;

- **shakl sathida:** aruzga murojaat qilish kuchaydi; metaforiklashuv, umuman, tasviriylik quyuqlashdi; jahon adabiyotidagi turli tajribalar, usullar dadil qo‘llana boshladi. Modernistik yo‘nalish anchagina kuchaydi.

O‘tgan asrning so‘ngida boshlangan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, iqtisodiy muammolar, xalq turmush tarzining yangi muhitga moslashishi bilan bog‘liq jarayonlar natijasida she‘riyat ham batamom ko‘ngil ishiga aylandi, she‘riyat inson ruhiyatidagi g‘alayonlarni, o‘z-o‘zini taftish qilayotgan, o‘z-o‘zini so‘roqqa tutayotgan lirik qahramonni, o‘z-o‘zidan norozi va o‘ziga qarshi kurashga bel bog‘lagan, o‘zi bilan olishayotgan ko‘ngil odamini, uning holatlarini tasvirlashga o‘tdi.

Bobning ikkinch fasli “*Zamonaviy she‘riyat kontekstida Asqar Mahkam ijodi*” deb atalgan. Ifoda va tasvir usuli boshqalarnikiga o‘xshamaydigan shoirning olam va odamga bo‘lgan nuqtai nazari garchi boshqa ijodkorlarning qarashlari bilan yaqin bo‘lsa ham, uning she‘rlaridagi poetik fikrlar, obrazlar, she‘r sintaksisi, ijod leksikasi tamomila farq qiladi. Biroq ta‘kidlash lozimki, Asqar Mahkam she‘rlariga oid tadqiqotlar hozircha kitoblaridagi so‘zboshilar, tojik adabiyotshunoslari va hayotda Asqar Mahkamni yaqindan tanigan adabiyotchi do‘stlarining maqolalaridan iborat bo‘lib qolmoqda. Bu yo‘ldagi ayrim izlanishlar, jumladan, Yusufali Shonazarovning “Asqar Mahkam” nomli kitobi, “So‘yladik goh uryon, gohi munaqqash” turkum maqolalari, Abdullo Zuhurning “Qattiq

⁷ Hamdam U. Yangilanish ehtiyoji. – T.: Fan, 2007. 89-b.

iymon shoiri” maqolasi, albatta, quvontiradi. Sh. Hasanovning “XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek dostonlari poetikasi”⁸, D. Quvvatovanning “XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek dostonchiligining taraqqiyot xususiyatlari”⁹ nomli yirik tadqiqotlarda shoirning “Ishq”, “To‘rt darvish”, “Tavajjuh” dostonlari mavzu doirasida tadqiq etilgan. Adabiyotshunos D. Quvvatova shoir dostonlariga munosabat bildirib, “*Asqar Mahkam dostonlarini yaxlit bir mehvarga birlashtirib turgan bosh omil – bu ilohiy mehrdir. Ana shu ilohiy mehr – Haqqa bo‘lgan ishq jilolarida namoyon bo‘ladi*”¹⁰ deb ta’kilasa, Ne’matullo Ibrohim Asqar Mahkamning “Haq” kitobiga yozgan so‘zboshisida shunday deydi: “*Asqar Mahkam o‘z asarlarida Insonni bor murakkabligi bilan tasvirlaydi. Yuzaki tavsif etish uning ruhiyatiga yotdir. Boshqacha qilib aytganda, u insonni nafrat bilan sevadi, inkor bilan e’tirof etadi, og‘u bilan davolashga, alam bilan shodlantirishga intiladi...*”¹¹

Asqar Mahkam ijodi zamonaviy she’riyat kontekstida tasvir, ifoda jihatidan ajralib turishi bilan birga, unda shijoatkor bir ruh mavjud. Shoir nihoyatda keskir so‘zlarni tanlaydi, uning she’rlarida zorlanish yo‘q, mung va hasrat kuchli bo‘lsada, shiddat ustuvor. U “Buvimga yuborilmagan maktub” she’rida, hattoki, taqdiri azal uni bu dunyodan olib ketsa ham chekinmasligini aytib, “*Sening qabring mening boshimda Ayol!*”, “*Meni o‘ldirolmas qismat baribir, bir kun oyog‘ingga qaytarman o‘zim...*”¹² - deya go‘yoki buvisiga taskin berayotgandek tuyulsada, aslida qismatdan chora izlaydi. Insonga xos bo‘lgan dard, azob, qiynoq, alam, yo‘qotish, armon, mag‘lubiyat kabi tuyg‘ular “So‘nggi xato”, “Buvimga maktub”, “Opamga maktub”, “Noma‘lum do‘stga maktublar”, “Bag‘ishlov” kabi she’rlarida obraz darajasiga ko‘tarilgan. Lirik qahramon bunday she’rlarda subyekt bilan birlashib ketgan. U ijodni mashg‘ulot deb emas, hayot deb qabul qila olgan va unga sodiq qola olgan shoir.

Shoirning e’tiroficha: “*She’riga o‘xshagan shoir shoir emas*”. Asqar Mahkam o‘z she’riga o‘xshagan shoir. Shuning uchun ham unga “qattiq iymon shoiri” degan yuksak bir maqom berilgan. Shoir, “*Iymonni nur derlar, nurdir, nurdir u, Bu nurni ko‘rmagan ko‘rdir, ko‘rdir u...*” desa, yana bir o‘rinda “so‘z va ruh bilan yolg‘iz qolgan shoir iymonli bo‘lsa, bu jarayon ibodatdir”, deb yozadi. Aslida mana shu ta’riflarning zaminida shoirning ichki “men”i mavjud va bu xislatlar uning o‘ziga ham taalluqli.

Adabiyotshunos olim Sh.Hasanov Asqar Mahkamning “Tavajjuh”, “Fotiha”, “Ishq” dostonlari markazida muallif “men”ini turishini to‘g‘ri qayd etadi¹³. Uning fikricha, Asqar Mahkamning lirik qahramonni qiyofasida aniq bir davr kishisini emas, barcha zamonlar uchun ham xarakterli bo‘lgan holat-kayfiyatni ko‘rish mumkin. Nafs va unga bo‘ysunishni istamagan ruh, o‘lim va uni tan olmaydigan

⁸ Hasanov Sh. XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek dostonlari poetikasi. Filol.fanlari d-ri diss... –T.: 2004.

⁹ Quvvatova D. XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek dostonchiligining taraqqiyot xususiyatlari. Filol.fanlari d-ri diss... – T.: 2016.

¹⁰ Quvvatova D. XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek dostonchiligining taraqqiyot xususiyatlari. Filol.fanlari d-ri diss... – T.: 2016. 60-b.

¹¹ Sayyid Ne’matullo Ibrohim. Ruhning sangin sadolari // Asqar Mahkam. Haq.– Dushanbe, «Adib», 1998. 4-b.

¹² Asqar Mahkam. Vahdat kuyi. –T.: Nurafshon business. 2001. 22-b.

¹³ Hasanov Sh.Doston tarkibi va tabiati.Samarqand: SamDU nashriyoti,2011. 67-b.

Ishq, surat va unga bo'ysunmaydigan siyratning to'qnashuvi va mazkur qarama-qarshi tushunchalarning falsafiy talqinlarida shoir "men"i, adabiy-estetik qarashlari, falsafiy-diniy nuqtayi nazarini namoyon bo'ladi.

Uchinchi fasl "*An'ana va uning zamonaviylik bilan uyg'unlashuvi*" deb nomlangan. Asqar Mahkam she'riyatida an'ana va zamonaviylik uyg'unlashgan shunday ohanglar mavjudki, unda Bedil, Bobur, Mashrabdan tortib, Shavkat Rahmon, A'zam O'ktamgacha bo'lgan shoirlarning nafasi seziladi.

Mumtoz adabiyotdagi obraz, majoz va metaforalar bugungi she'riyatimizga ham xos. Biroq bu hodisa taqlidchilikdan yiroq bo'lib, zamonaviylik bilan uyg'unlashgan tarzda namoyon bo'ladi. Hijron, iztirob motivlari shunday bir ohang va ifodada bo'y ko'rsatmoqdaki, unda g'oya va ruh tamomila yangilangan. Ayni shu hodisa Asqar Mahkamning aruzda yozilgan she'rlarida alohidalik kasb etmoqda.

Yana bo'm-bo'sh uzanlarda xayol kezza, meni yod et,
Yana yomg'irli bog'larda shamol essa, meni yod et.

Umr fasli sarosar evrulirkim girdiboddir u,
Boshing uzra xazonlar bosh olib ketsa, meni yod et...¹⁴

Bunday she'rlarda ilohiy va zaminiy ishq, tarix, zamon, abadiyat atrofida aylanib turuvchi muammolar go'zal poetik umumlashma, ohori to'kilmagan fikr, ta'sirchan va bo'yoqdor obraz, tabiat va inson uyg'unligi yaxlit bir kartina hosil qiladi. Uning bosh qahramoni insondir.

Johillikdan ma'rifat tomonga, o'zini anglash va tanishga bo'lgan ishtiyoq Asqar Mahkamning an'ana va uning zamonaviylik bilan uyg'unlashgan she'rlarida tiniq obrazlarda aks etadi. "Sog'inch", "Mening daryolarim", "Kuz oldi", "Guvohnoma", "Bir bola haqida hikoyat", "Buvim bilan xayrlashuvim" kabi she'rlarida Kofirnihon, tog', oddiygina qishloq kampiri, bolalik, sodda va to'pori tog' kishilari, *oy, shamol, yomg'ir, kuz, tun, yalpiz, daraxt, it* obrazlari orqali chizilgan tasvirlarda an'ana va zamonaviy obrazlar uyg'unlashib o'quvchi ko'z oldida betakror manzara jonlanadi.

Oy shoxidan sindi qarsillab,
Majruh sarboz tutgan shamshirdek.
Sharaqlagan daryolar tindi,
Javrab-javrab qolgan kampirdek.¹⁵

Asqar Mahkam she'riyatida mustaqillik davrigacha tuyg'ular bayoni yetakchilik qilsa, keyingi davrda dunyoni anglash, olam va odamga munosabat, hayotning ma'nosini tushunishga urinish mutlaqo boshqacha shakl va mazmunda namoyon bo'ladi.

Ma'rifatga tashna qalblarning istagi, maqsadi bitta—o'zini, o'zligini anglash.
Dedim – chora bormi
Ketsam, qaytmasam...
Bir Yor bilan o'tsam

¹⁴ Asqar Mahkam. Haq. – Dushanbe, «Adib», 1998. 89-b.

¹⁵ Asqar Mahkam. Haq. – Dushanbe, «Adib», 1998. – 112-b.

O'tib bahrimdan...
Dedi – Yor bittadir,
Ul Yorga qasam,
Ketgil o'sha Yorga
Mening bag'rimdan...

Asqar Mahkam ijodiga jiddiy nazar solsak, unda mumtoz an'analar va zamonaviylikni uyg'unlashganligini ko'ramiz. Keltirilgan she'riy parchada mavzu, ohang, ifoda an'anaviy, shakl esa zamonaviydir. Shoirning o'z-o'zini tark etishi o'z nafsini yengga olganligiga ishora. Tasavvufda o'lishdan oldin o'lmoq, degan qarashda zohiriy o'lim emas, nafsni mag'lub etish, uni o'ziga bo'ysundirish nazarda tutilgan. Shoirning o'zini tark etishi va qaytadan topishi shu aqidaga ishora. Nafsdan poklangan, hamda axloqqa ega bo'lgan ijodkorga g'aybni anglash baxti musharraf bo'ladi. Uning qanchalar yuqori maqomga ko'tarilishi o'zining parhezkorligi, ruhiy quvvati, iste'dodi va yana amallaridagi xolislikka bog'liq. Bu yo'nalishda Asqar Mahkam yaratgan she'rlar o'zining originalligi, asl manbalardan suv ichganligi, islomiy ruhning ustivorligi, ilohiy haqiqatlarning poetik tafakkur bilan sintezlashganligi bilan ajralib turadi.

Asqar Mahkam ijodi an'ana va zamonaviy she'riyat uyg'unligida kuzatilgan shoir ijodida shaxs erki, ichki hurriyatga tashnalikning ortishi, she'riyatning ijtimoiylikdan bir qadar uzoqlashib shoirning o'z ichki "men"iga yuz bura boshlaganligi, adabiyotning mafkura qoliplarini sindirib, o'zining asliy o'zanlariga qaytishga urinishlar bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Asqar Mahkam she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari**" deb atalgan. Bobning dastlabgi fasli "*Asqar Mahkam she'riyatida mavzu rang-barangligi*" tarzida nomlangan.

Asqar Mahkam she'riyatida mavzu rang-barangligi shoir va xalq dardining mushtaraklik, uyg'unlik, birlik hosil qilinganligi natijasi bo'lib, unda odamzotning murakkab va sirli xilqat ekanligi, insoniyatning ziddiyatlarga to'la qiyofasi turli ko'rinishlarda tasvirlanadi. Asqar Mahkam she'rlarini mavzusiga ko'ra shartli ravishda quyidagicha tasnif qilish mumkin: *Vatan va yurt mustaqilligi; tarix va tarixiy shaxslar; o'lim va judolik; xotira, yodnomalar; bag'ishlov va maktublar; ayollar mavzusi; tabiat mavzusi.*

Vatan va yurt mustaqilligi mavzusidagi she'rlar. Shoir nima haqida, qaysi mavzuda so'zlamasin gap Vatanga borib taqaladi. Asqar Mahkam she'riyatining tirgaklari, tayanch nuqtalaridan biri Vatan, Xalq va Erk mavzularidir.

"Kulfat itlari sur tortgan kechada
devorlarni yegach och qumursqalar.
Bir sag'ir Vatanni tutib yelkada
qayon ketyapsan Asqar..."

Kulfat itlari – vahshiy, qonxo'r mustamlakachilar;

sur tortgan kecha - erk, e'tiqod oyoqosti bo'lgan istibdod davri;

devorlarni yegach och qumursqalar – yurtning boyliklarini tashib ketish bilan nafsi qonmagan, hatto uning g'ururi baland o'g'lonlarini, pokdomon qizlarini

qulga aylantirgan, boshpanasini ham vayron qilgan istilochilar. Shu o‘rinda devor or-nomus, erk ramzi ekanligini ham unutmaslik kerak.

Bir sag‘ir Vatan – Alpomishlari badnom qilingan, Fayzulla Xo‘jaev, Fitrat, Qodiriy, Cho‘lponlari otilgan, o‘zining erkparvar farzandalaridan judo bo‘lib, yetim qolgan yurt.

qayon ketyapsan, Asqar... – Shoir o‘zini so‘roqqa tutadi? O‘zini malomat qilishiga sabab, u o‘zini mana shuncha jaholat, haqsizliklarni ko‘ra bila turib jim turganlikda ayblaydi. Shuning uchun o‘ziga “*Hali sen odamman dedingmi o‘zni bosh ham ko‘tardingmi izdihom aro? Sen Alloh sasi deb anglagan so‘zni yedi shuaro...*”, deyish orqali, ijtimoiy-siyosiy tuzumga ayb qo‘yadi. Shuningdek, shoirning “Vatanning qaytishi”, “Hurriyat”, “Ozodlik”, “Nasiba” “Bibi ena”, “Ashqal dashqallar”, “Ibtidoiy odamning malomati”, “Qotillik”, “Odam-Vatan” kabi she‘rlari ham shu mavzuda bitilgan. Asqar Mahkam lirikasining mavzular ko‘lami qanchalik keng bo‘lmasin, shoir she‘riyatida yagona qahramon sifatida o‘zini izlayotgan inson obrazi bo‘y ko‘rsatadi. Tadqiqotda shoirning barcha yo‘nalishlaridagi she‘rlari tahlilga tortildi.

Bobning “*Ilohiy-irfoniy motivlar tadriji*” deb nomlangan ikkinchi faslida shoir she‘rlarida badiiy talqin qilingan diniy, tasavvufiy g‘oyalar tahlilga tortiladi. Sharq adabiyotida azal-azaldan ilohiy motivlarning badiiy ifodasiga alohida muhabbat bilan yondashilgan. Asqar Mahkam she‘riyatiga chuqur nazar solsak, uning asosiy mohiyati, falsafasi ilohiy-irfoniy motivlardan iborat ekanligi ko‘rinadi.

Asqar Mahkam ilohiy-irfoniy motivlarni mumtoz adabiyot qoliplariga solib ifodalagan o‘rinlar ham mavjudki, bunday she‘rlar ilohiy-irfoniy mavzudagi asarlari orasida eng saralaridir.

Dedim – Qazo nedir

– Tiyri kamondir

Dedim – Jazo nedir

– Oxir zamondir...

Dedim – Ayt Ishq nedir

– Azal savdodir

Dedim – Suymoq nedir

– Azim balodir...

Dedim – umr nedir

– Turfa hangoma

Dedim – O‘lmoq nedir

– Tug‘ilmoq yana...¹⁶

Shoir ushbu “Savol-javob” she‘rida inson umri davomida eng ko‘p uchraydigan va o‘zini qiynab keladigan mazkur savollarga obrazli tarzda eng to‘g‘ri va maqbul javoblarni tanlaydi. Shoir she‘rda fano va boqiylik orasida tug‘iladigan, tug‘ilishdan to o‘limga qadar bo‘lgan yo‘lda o‘zimiz goh anglab, goh anglamay to‘qnash keladigan savollarga ilohiy va falsafiy nuqtai nazardan qarab

¹⁶ Asqar Mahkam. Haq. – Dushanbe, «Adib», 1998. – 423-6.

javob beradiki, har bir javob, har bir satr qatida singdirib yuborilgan hayot va ilohiyotning asosiy mezonlari kishini chuqur mushohadaga undaydi. She'ni o'qiyotgan kishi bu tarzda sodda va ravonlik bilan, badiiylik mezonlariga solingan ilohiy-irfoniy "qazo", "jazo", "oxir zamon", "ishq", "savdo", "iymon", "ko'ngil" kabi motivlardagi shoir aytmoqchi bo'lgan yoki nazarda tutgan hodisotlarni darhol anglaydi va xulosa chiqaradi.

Bobning uchinchi fasli "*Poetik obraz va badiiy matn serqatlamligi*" tarzida nomlangan. Badiiy matn yaratish uslubi boshqalarnikiga o'xshamaydigan shoirning olam va odamga bo'lgan nuqtai nazari garchi boshqa ijodkorlarning qarashlari bilan yaqin bo'lsa ham, uning she'rlaridagi poetik fikrlar, obrazlar, she'r sintaksisi, ijod leksikasi tamomila farq qiladi.

She'rlari bir-biriga hamohang so'zlardan tarkib topgan Asqar Mahkamning ijodiga xos badiiy matn va poetik obrazlarda falsafa, tarix, tasavvuf qorishib ketadi, shu sababli shoir ijodini tayyorgarliksiz o'qib tushunish qiyin. Shoir lirikasida obrazlar xilma-xil tuyulsa-da, aslida ular *Vatan, erk, hayot va o'lim, qismat, majoziy ishq va ilohiy tuyg'ular* atrofida birlashadi.

O'zbek adabiyotida eng ko'p uchraydigan Vatan va ona obrazlari gohida birlashib ketadi. Vatanni onaga, onani Vatanga mengzash, hattoki ona - Vatan deya sifatlash, ta'rif berish odatiy holga aylangan. Ammo Asqar Mahkam ijodida Vatanning yangicha talqinlariga duch kelamiz.

Men bilaman, nimadir Vatan,
Vatan!.. Mening tanam bag'rida
yashayotir bir kampir – dardmand,
bu dunyoning tirik dardiday¹⁷.

"Nasiba" she'ridan olingan parchada shoir Vatanni "*dardman kampir*" deya original tashbih yaratadi. Ilk misralardagi bunday o'xshatish va lirik qahramonning "bu dunyoning tirik dardiday" deya ta'kidlashi, dard aslida faqat bu dunyo uchun xosligini bilgan har qanday ziyrak kitobxonni o'ylantirib qo'yadi. Shoirning hayoti va ruhiy kechinmalari bilan yaxshi tanish bo'lgan har qanday o'quvchining xayolidan shu lahzada lirik qahramonning jondan-da aziz buvisi lop etib o'tadi. She'rning keyingi satrlari bu taxmini tasdiqlaydi. Quyidagi bandda shoir vatanni "*U o'xshaydi sening sochingga*" deya dardmand kampir buvisining sochlarida ko'radi.

Men bilaman, nimadir Vatan,
U o'xshaydi sening sochingga...¹⁸

Asqar Mahkam ijodida *shamol, yomg'ir, daraxt, osmon, kuz, oy, tun* kabi so'z obrazlar ham ko'p uchraydi.

Yana yomg'ir yog'ar to'zg'ib, tirqirab,
osmon tomog'ida yaraqlar xanjar...
Bu to'zonlar aro manzilgoh istab,
umring qay sohilga tashladi langar?...¹⁹

¹⁷ Asqar Mahkam. Haq. – Dushanbe, «Adib», 1998. – 30-6.

¹⁸ Asqar Mahkam. Haq. – Dushanbe, «Adib», 1998. – 30-b.

“Buvimga yuborilmagan maktub” she’ridan olingan mazkur parchada bir qarashda shunchaki tabiat hodisasi tasvirlangandek tuyuladi. Odatda, she’riyatda ko’p uchraydigan *yomg’ir, kuz, shamol, tun* kabi motiv obrazlar lirik qahramonning ruhiyati, ayni vaqtdagi holati va kayfiyatining obrazli ifodalanishidir. “Yomg’ir” obrazi shoirlar she’riyatida turfa xil kechinmalarni ifodalaydi. Asqar Mahkam she’riyatida, asosan, salbiy ma’nodagi obraz holatlarni ifodalaydi, ammo mustasno holatlar ham uchrab turadi. “*Yana yomg’ir yog’ar to’zg’ib, tirqirab, osmon tomog’ida yaraqlar xanjar...*”, – yana to’zg’ib, tirqirab yomg’ir yog’ishi va yaraqlagan xanjardek chaqmoq chaqishi oldinda yana qandaydir vahimali g’alayon, notinchlik yuz berishini sezib turgan lirik qahramon ichki dunyosida yuz berayotgan hadik va qo’rquvga ishora qiladi. “*Bu to’zonlar aro manzilgoh istab, umring qay sohilga tashladi langar?...*” – “*bu to’zonlar*” deya shoir umri azob-uqubat, og’ir mehnatda o’tgan, ro’shnolik, bir yorug’ kun ko’rmagan buvisining qismatini nazarda tutadi. “*Manzilgoh*” barchamizning borar yerimiz, “*sohilga langar tashlash*” esa hayot dengizida, ummonida suzishni to’xtatish, aniqroq aytganda, rixlat qilish, dunyodan ko’z yumish nazarda tutiladi. Shoir she’rlarida ko’p hollarda yomg’ir obrazi va ayriliq, yo’qotish, o’lim kabi holatlar bilan yonma-yon keladi.

Tadqiqotning uchinchi bobi “**Uslub va badiiy tasvir poetikasi**” tarzida nomlangan bo’lib, uch fasldan iborat. Bobning dastlabki fasli “*Shoirning badiiy san’atlardan foydalanish mahorati*” tarzidan atalgan. Ta’kidlash kerakki, badiiy adabiyotda so’zni obrazli ifodalash, uning ma’no qatlamlarini boyituvchi leksik birliklar va tasviriy – ifodaviy vositalardan mahorat bilan, o’z o’rnida foydalanish ijodkor aytmoqchi bo’lgan fikrning estetik ta’sir quvvatini belgilab beradi. Asqar Mahkam she’riyati ana shunday ijod namunalaridandir. Uning she’rlari his va aqldan to’yingan, istiora va metaforalarga, ramz va ko’chimlarga boy she’riyat.

Asqar Mahkam she’rlari ana shunday badiiy san’atlarga, jumladan, “tesha tegmagan” tashbihlarga boy. Shoirning “So’nggi xato” she’rida tashbihning “*tashbihi mufassal*” namunasini keltiramiz.

Men qishloqdan ketdim...

O’g’riday

Talon qilib buvim bisotin.

Oq sochlarin yopgan o’g’irday

Titrrar edi mo’rilarida tun.²⁰

